

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI XALQARO SUDI YURISDIKSIYASINI TAN OLISHNING XALQARO-HUQUQIY MASALALARI

Fayzullaeva Ozoda Baxrom qizi

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, “Xalqaro huquq va inson huquqlari”
yo’nalishi magistranti.

ozodafayzullayeva9@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14061662>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xalqaro Sudning (ICJ) xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishdagi roli va uning O‘zbekiston uchun ahamiyati tahlil qilinadi. ICJ davlatlar o‘rtasidagi huquqiy masalalarni hal etishda mustaqil sud organi sifatida muhim o‘rin tutadi. Maqolada ICJ yurisdiksiyasining asosiy turlari – nizoli va maslahatchi yurisdiksiya tushuntirilib, har birining xalqaro huquqda qanday qo‘llanilishi keng qamrovda yoritiladi. Tadqiqot, shuningdek, ICJning tarixiy misollarini, jumladan, AQSh va Nikaragua, Ukraina va Rossiya o‘rtasidagi nizolarni o‘rganadi, bu orqali sudning yurisdiksiyasi va davlatlararo muammolarni hal qilishdagi muhim qiyinchiliklarni ko‘rsatadi. Maqolada yurisdiksiya masalalari, davlatlarning roziligi tamoyili va Xalqaro Sudning qarorlarining majburiyligi kabi dolzarb huquqiy masalalar haqida keng fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: BMT Xalqaro sudi, yurisdiksiya, xalqaro huquq, majburiy yurisdiksiya, fakultativ protokol, nizoli yurisdiksiya.

INTERNATIONAL LEGAL ISSUES OF RECOGNITION OF THE JURISDICTION OF THE UNITED NATIONS INTERNATIONAL COURT OF JUSTICE

Abstract. This article analyzes the role of the International Court of Justice (ICJ) in peaceful settlement of international disputes and its importance for Uzbekistan. The ICJ plays an important role in resolving legal issues between states as an independent judicial body. The article explains the main types of jurisdiction of the ICJ - contentious and consultative jurisdiction, and how each is used in international law. The study also examines historical examples of the ICJ, including disputes between the United States and Nicaragua and Ukraine and Russia, to illustrate the Court's jurisdiction and significant challenges in resolving interstate issues. The article expresses a broad opinion about current legal issues such as jurisdiction issues, the principle of consent of states and the binding nature of decisions of the International Court of Justice.

Key words: UN International Court of Justice, jurisdiction, international law, mandatory jurisdiction, optional protocol, disputed jurisdiction.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ПРИЗНАНИЯ ЮРИСДИКЦИИ МЕЖДУНАРОДНОГО СУДА ООН

Аннотация. В данной статье анализируется роль Международного Суда (МС) в мирном разрешении международных споров и его значение для Узбекистана. Международный Суд играет важную роль в разрешении правовых вопросов между государствами как независимый судебный орган. В статье объясняются основные виды юрисдикции Международного Суда – спорная и консультативная юрисдикция, а также способы использования каждой из них в международном праве. В исследовании также рассматриваются исторические примеры Международного Суда, в том числе споры между Соединенными Штатами и Никарагуа, а также Украиной и Россией, чтобы проиллюстрировать юрисдикцию Суда и серьезные проблемы в разрешении межгосударственных вопросов. В статье выражено широкое мнение по актуальным правовым вопросам, таким как вопросы юрисдикции, принцип согласия государств и обязательный характер решений Международного Суда.

Ключевые слова: Международный Суд ООН, юрисдикция, международное право, обязательная юрисдикция, факультативный протокол, оспариваемая юрисдикция.

Kirish

Ma'lumki, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash xalqaro hamjamiyatning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Buni BMT Nizomining 1-modda 1-bandida tashkilotning vazifasi sifatida belgilanganligi tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Nizomning asosiy tamoyillaridan biri shuni ko'rsatadiki, "barcha a'zolar xalqaro tinchlik va xavfsizlik hamda adolat xavf ostiga qo'yilmasligi uchun o'zaro xalqaro nizolarini tinch yo'l bilan hal qilishlari kerak" (2-modda (3)). Bu tamoyil Xalqaro Sudning (ICJ) roli va uning yurisdiksiyasini tan olishning muhimligini asoslash uchun mustahkam asos yaratadi.

Yurisdiksiya sudlar va sud amaldorlari tomonidan ishlarni ko'rib chiqish va qaror chiqarish vakolatini anglatadi.¹ Shu sababli, agar biror sud yoki sudya ma'lum bir masala bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lmasa, unda bu ish bo'yicha chiqarilgan har qanday hukm yaroqsiz va kuchsiz deb e'lon qilinadi. Darhaqiqat, inson kabi, sud ham ega bo'lmagan narsasini bera olmaydi. *Nemo dat quod non habet* (ya'ni, "kishi o'zida yo'q narsani bera olmaydi"). Yuqoridagi tushuntirishdan ko'rinib turibdiki, yurisdiksiya sud yoki sud amaldori tomonidan sud vakolatlarini amalga oshirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.² Shu nuqtada savol tug'ilishi tabiiydir: Xalqaro Sud (ICJ) o'z yurisdiksiya va sud vakolatlarini qayerdan oladi?

¹ Case of Board of Trustees V. Brooks 67 p. 2d4, (Owa 1937)

² Max Ams, Inc. v. Barker, 293 Ky. 698, 702 (Ky. 1943)

Xalqaro Sud o'z sud vakolatlarini Xalqaro Sud Ustavidan oladi. Ushbu Ustav Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining XIV bobida ko'rsatilgan va u Xalqaro Sudni tashkil etadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot metodologiyasi keng qamrovli adabiyotlar tahlilidan boshlanadi, bunda turli xalqaro-huquqiy, normativ va akademik manbalardan foydalanilgan. ICJning yurisdiksiyasini tan olishga oid xalqaro-huquqiy masalalar bo'yicha shakllangan huquqiy me'yorlarni o'rganish uchun BMT Nizomi va ICJ Ustaviga bog'liq asosiy hujjatlar tizimli ravishda ko'rib chiqildi.

Shuningdek, Nikaragua va AQSh, Ukraina va Rossiya o'rtasidagi nizolar chuqur tahlil qilinib, ushbu masalalarning xalqaro huquqiy talablarga muvofiqligi va ICJ qarorlarining davlatlararo munosabatlarga ta'siri o'rganildi. Ushbu ishlar ICJning nizoli va maslahatchi yurisdiksiyasini amalda qo'llashdagi asosiy huquqiy tamoyillar va qiyinchiliklarni yoritishga yordam beradi.

Bundan tashqari, xalqaro huquq va ICJ bo'yicha xalqaro darajadagi huquqshunos olimlarning ilmiy maqolalari va kitoblari, xususan, ICJning yurisdiksiyasi va davlatlarning roziligi tamoyili haqida yozilgan adabiyotlar tahlil qilindi. Richard K. Gardner va boshqa huquqshunoslarning asarlari ICJning xalqaro nizolarni hal qilishdagi o'rni va davlatlarning yurisdiksiyani tan olishdagi dolzarb huquqiy muammolarni har tomonlama yoritish imkonini beradi.

Natijalar

Tadqiqot davomida davlatlarning BMT Xalqaro Sudi yurisdiksiyasini tan olishdagi turli yondashuvlari hamda ularning suverenitet masalalariga oid o'ziga xos pozitsiyalari muhim omillar sifatida aniqlangan. ICJ xalqaro nizolarni hal qilishda asosiy rol o'ynasa-da, uning yurisdiksiyasi faqat muayyan shartlar asosida qo'llaniladi va faqat davlatlar murojaat qilishi mumkin. Bu ICJ Statutining 34(1)-moddasi bilan belgilangan bo'lib, unda "faqat davlatlar sudda tomon sifatida ishtirok etishi mumkin" deyilgan. Shu munosabat bilan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatmoqda:

- BMT a'zo davlatlari: BMT Nizomini ratifikatsiya qilgan va ushbu Nizomning ajralmas qismi hisoblangan Xalqaro Sud Statutining ishtirokchisiga aylangan barcha BMT a'zo davlatlari ICJga murojaat qilish huquqiga ega.

- BMT a'ziligiga ega bo'lmagan davlatlar: BMTga a'zo bo'lmasa-da, ICJ Statutining ishtirokchisiga aylangan davlatlar ham sudga murojaat qilish huquqidan foydalanishi mumkin.

Ushbu davlatlar 93(2)-modda asosida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Xavfsizlik Kengashi tavsiyasiga ko'ra har bir holatda belgilangan shartlar asosida Statutga a'zo bo'lislari

mumkin. 1947-yilda Shveysariya va 1950-yilda Lixtenshteynga yuklatilgan ushbu shartlar Statutni, BMT Nizomining 94-moddasi bo'yicha a'zolarining majburiyatlarini qabul qilish va sud xarajatlariga adolatli hissa qo'shish majburiyatini o'z ichiga olgan. Shu tariqa, Shveysariya 1948-yilda ushbu protseduradan foydalanib a'zo bo'lgan, Nauru esa 1988-yilda 93(2)-modda asosida a'zo bo'lgan.

- Maxsus ariza orqali murojaat qiluvchi davlatlar: BMT yoki Xalqaro Sud Statutiga a'zo bo'lmagan, biroq Xavfsizlik Kengashi tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kotibiyatga ariza taqdim etgan va shu orqali Sudning yurisdiksiyasini tan olgan davlatlar ham ICJga murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi (bir qator davlatlar BMT a'zoligiga qabul qilinishidan oldin ushbu maqomda bo'lgan). Bu Statutning 35(2)-moddasi va 1946-yil 15-oktabrdagi Harbiy Kengashning qaroriga muvofiq amalga oshishi mumkin bo'lib, bunda bunday davlatlar sud qarorini bajarishni va Nizomning 94-moddasi majburiyatlarini qabul qilishlari lozim; sud o'z navbatida ushbu ish uchun zarur bo'lgan xarajat miqdorini belgilaydi.

Ikkinchi va uchinchi toifalar o'rtasidagi muhim farq shundaki, ikkinchi toifa davlatlar 36(2)-modda bo'yicha majburiy yurisdiksiya rejimida to'liq ishtirok eta oladilar, ya'ni "Ixtiyoriy Band"da, uchinchi toifadagi davlatlar esa Ixtiyoriy Bandga qo'shilishlari mumkin, ammo ular Statut a'zolariga (1 yoki 2-toifaga) nisbatan foydalanishi uchun ular bilan alohida kelishuvga erishishlari kerak

Tadqiqot natijalari shuningdek, ICJning nizoli ishlarni ko'rishda davlat roziligiga asoslanish tamoyili bilan ishlashini tasdiqlaydi. Bu tamoyil xalqaro nizolarni hal qilishni tartibga soluvchi eng asosiy prinsip hisoblanadi, chunki davlatlar suveren bo'lib, ular nizolarni hal qilish usullarini tanlash erkinligiga ega. ICJ Statutining 36-moddasida "Sudning yurisdiksiyasi unga tomonlar tomonidan topshirilgan barcha ishlarni va BMT Nizomi yoki amaldagi Shartnomalar va Konvetsiyalarda aniq ko'rsatilgan masalalarni o'z ichiga oladi," deb belgilangan.

Davlatlar o'z roziligini quyidagi uch usuldan biri orqali ifodalashi mumkin:

- Maxsus bitim: Muayyan nizo yuzasidan ikki yoki undan ortiq davlatlar o'zaro kelishuvga erishib, ushbu masala bo'yicha maxsus bitim tuzadi va uni Sudga taqdim etadi;
- Shartnoma moddasi: Agar xalqaro shartnoma doirasida talqin qilish yoki qo'llash bo'yicha kelishmovchilik yuzaga kelsa, oldindan Sud yurisdiksiyasini tan olish majburiyatini belgilovchi moddalar orqali (bular "yurisdiksiya moddalari" deb ataladi) o'z roziligini bildirishi mumkin;
- Bir tomonlama ariza: Sud statutiga qo'shilgan davlatlar boshqa davlatlar uchun ham majburiy bo'ladigan tarzda Sud yurisdiksiyasini qabul qilishi mumkinligini bir tomonlama deklaratsiya bilan bildirishi mumkin.

Ushbu "fakultativ ogovorka" tizimi orqali davlatlar o'zaro kelishuvga asosan kelgusida yuzaga keladigan nizolarni hal qilish uchun Sud yurisdiksiyasini qabul qilgan davlatlar guruhini tashkil etadilar. Bu guruhga kiruvchi har bir davlat boshqa shu kabi davlatlarga nisbatan Sudga murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar vaqt chekloviga, qo'shimcha shartlarga (ogovorkalarga) ega bo'lishi yoki ayrim nizolarni istisno qilish imkoniyatiga ega. Ular saqlanish uchun BMT Bosh kotibiga topshiriladi.

Qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar, ICJ qarori tegishli tomonlar uchun majburiy kuchga ega. Nizom va Statutga muvofiq, Sud a'zo davlatlar o'rtasidagi nizoli masalalarni ko'rib chiqish huquqiga ega. Statutda "Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolari ICJ Statutiga avtomatik ravishda a'zo hisoblanadi" deb ko'rsatilgan. Ushbu qoidalariga ko'ra, faqat nizoda ishtirok etayotgan davlatlar ICJda o'z hukumatlari orqali vakillik qiladi va sud tomonidan qabul qilingan qaror davlatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday muammoga qaramasdan bajarilishi kerak bo'ladi.

Statistikaga nazar soladigan bo'lsak, 2000-yil holatiga ko'ra, BMTga a'zo davlatlarning taxminan uchdan bir qismi Sudning majburiy yurisdiksiyasini tan olish bo'yicha bir tomonlama deklaratsiya bergan (ya'ni, 62 davlat). 2023- yil holatiga ko'ra 73 davlat Sudning majburiy yurisdiksiyasini tan olgan. Ularning 45% i rivojlangan davlatlar, 55%i rivojlanayotgan davlatlarni tashkil etadi.

Agar biror davlat Sudning yurisdiksiyasini avvaldan tan olmagan bo'lsa, u muayyan nizoli ish uchun Sudning yurisdiksiyasini qisman qabul qilish orqali Sudga murojaat etishi mumkin va bu holda Sud mazkur ishni ko'rib chiqishga haqli bo'ladi. Shunisi ma'lum bo'ladiki, davlatlar ICJ yurisdiksiyasini qabul qilishda turli xil yondashuvlarga tayanadi, ayniqsa *forum prorogatum* qoidasi asosida tan olish amaliyoti ularga ma'lum darajada erkinlik beradi. Shu kundan boshlab, Sud *forum prorogatum* qoidasi asosida bu ishga nisbatan yurisdiksiyaga ega hisoblanadi.

Natijalar shundan dalolat beradiki, boshqa davlat tomonidan Sudga chaqirilgan davlat, Sudning yurisdiksiyasini tan olsa-da, ayrim hollarda bu yurisdiksiyaning qo'llanishi mumkin emasligini ta'kidlashi mumkin. Bundan tashqari, mazkur davlat chaqirgan taraf bilan o'rtada huquqiy xarakterdagi nizo yo'qligi yoki Sud yurisdiksiyasini tan olish to'g'risidagi rozilik ko'rib chiqilayotgan nizoga nisbatan tatbiq etilmasligi kabi masalalarni ham bildirish huquqiga ega. Agar tomonlardan biri Sudning nizo bo'yicha yurisdiksiyasiga yoki ishni ko'rib chiqishga qabul qilishga yaroqliligi to'g'risida e'tiroz bildirsa, Sud ushbu masalani dastlabki qarorda hal qiladi.

Muhokama

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 93-moddasida aytilishicha, BMTga a'zo bo'lgan barcha 193 davlat avtomatik ravishda Xalqaro Sud statutiga a'zo bo'ladi. BMTga a'zo

bo'lmagan davlatlar ham 93(2)-modda bo'yicha protsedura asosida sud statutigaga a'zo bo'lishlari mumkin. Bu protseduradan Shveysariya 1948-yilda va Nauru 1988-yilda, BMTga qo'shilishidan oldin foydalangan. Davlat sud statutigaga a'zo bo'lganidan so'ng, sud oldida olib boriladigan ishlar ishtirokida qatnashish huquqiga ega bo'ladi. Ammo statutigaga a'zo bo'lish avtomatik ravishda sudga mazkur davlatlar o'rtasidagi nizolar bo'yicha yurisdiksiyani bermaydi. Yurisdiksiya masalasi ICJdagi uch turdagi ishlar bo'yicha ko'rib chiqiladi: nizoli masalalar, voqea yuzasidan yurisdiksiya va maslahat xulosalari.

Xalqaro Sud Statuti 38-moddasining 3-bandiga binoan, ICJ sud ishi bo'yicha *ex aequo et bono* – ya'ni adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan holda qaror qabul qilish huquqiga ega. 1984 yilda ICJ Kanadaga va AQShga tegishli Meyn ko'rfazi bilan bog'liq ishda adolatli mezonlarga asoslanib chegarani belgilashda qaror qabul qilgan.³

Yurisdiksiya turlari

Shuni ta'kidlash joizki, Xalqaro Sud (ICJ) ham asl yurisdiksiya, ham cheklangan apellyatsiya yurisdiksiyasiga ega.⁴ Asl (yoki birlamchi) yurisdiksiya bu ishda ko'proq ahamiyatga ega. ICJning asl yurisdiksiyasi ikki asosiy qismga bo'linadi:

- Nizoli yurisdiksiya (contentious jurisdiction)
- Maslahat xulosalari yurisdiksiyasi (advisory jurisdiction)

Richard K. Gardnerning fikricha, ICJ o'z yurisdiksiyasini amalga oshirganda, faqat nizoli masalalardagi qarorlari majburiy kuchga ega bo'ladi va faqat ushbu masalalarda ishtirok etayotgan tomonlar uchun majburiy sanaladi. U shuningdek, sudning hukmi va maslahat xulosalari xalqaro huquqda bir xil darajadagi obro'ga ega ekanligini ta'kidlagan. Shu bilan birga, maslahat xulosalari sudning hukmiga nisbatan bir xil majburiy kuchga ega emas. Boshqacha aytganda, maslahat xulosalari "*res judicata*" (ya'ni, hal qilingan ish) maqomini yaratolmaydi, chunki taraflar sud oldida bevosita ishtirok etmaydi.

Nizoli yurisdiksiya atamasi davlatlar o'rtasidagi bahsli masalalarni hal qilishda sudning yurisdiksiyasini anglatadi. ICJ ushbu yurisdiksiyani asosan a'zo davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilish uchun qo'llaydi va bunday davlatlar avval o'z roziliklarini berishlari kerak bo'ladi. Yurisdiksiya haqiqiy xalqaro huquqiy nizo mavjud bo'lgan, ya'ni u huquqiy yoki faktik masalalarni o'z ichiga olgan hollarda yuzaga keladi.

ICJning maslahat yurisdiksiyasi ICJ Statutining 68-moddasida belgilangan. U Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining boshqa organlari va

³ Case concerning Delimitation of the Maritime Boundary in the Gulf of Maine Area ICJ October 12, 1984.

⁴ The International Air Services Transit Agreement. December 7, 1944, Article 2, paragraphs 2 & 3, Berans 916, 84.

maxsus agentliklari tomonidan sudga yuborilgan savollarga taalluqlidir. Ushbu savollar faqat ushbu organlarning faoliyati doirasida yuzaga kelgan huquqiy masalalarga taalluqli bo'lishi mumkin. ICJ tomonidan berilgan maslahat xulosalari majburiy kuchga ega emas, lekin ular davlatlar o'rtasida tinch munosabatlarni mustahkamlash qobiliyatiga ega.

Xalqaro Sud yuzlashishi mumkin bo'lgan eng dolzarb muammolarga to'xtaladigan bo'lsak, bu uning yurisdiksiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Yurisdiksiya sud hokimiyatini amalga oshirish uchun zarur shart hisoblanadi. Agar ikki davlat o'rtasida biror hududiy nizo yoki boshqa xalqaro muammo yuzaga kelsa, Xalqaro Sud (ICJ) ushbu masalani ko'rib chiqishi uchun har ikkala davlatning roziligi kerak bo'ladi. Masalan, Xalqaro Sudga murojaat qilayotgan davlat nizo bo'yicha sud yurisdiksiyasini qabul qilgan bo'lsa-yu, lekin boshqa davlat buni rad etgan bo'lsa, ICJ nizoni hal qilish uchun majburiy qaror qabul qila olmaydi. Bu shuni anglatadiki, har ikkala tomon sudning yurisdiksiyasini tan olishlari kerak; aks holda, sud bu masala bo'yicha qonuniy kuchga ega qaror qabul qila olmaydi.

1980-yillarda AQSh va Nikaragua o'rtasida yuzaga kelgan mojaro ICJ yurisdiksiyasi masalasini yaxshi namoyon etadi. Nikaragua AQShni o'z suverenitetini buzishda ayblab, ICJga murojaat qildi. Sud bu ishni ko'rib chiqishga rozi bo'ldi, ammo AQSh ICJ yurisdiksiyasini tan olishdan bosh tortdi va natijada ICJ qabul qilgan qaror AQSh uchun majburiy kuchga ega bo'lmadi.

2017-yilda Ukraina Rossiyaning xalqaro terrorizmni moliyalashni taqiqlash va barcha shakllarda irqiy diskriminatsiyani bartaraf etish to'g'risidagi Konvensiyalarni buzishda ayblab, ICJga murojaat qildi. Ukraina Rossiyaning Donbasdagi qurolli guruhlarini qo'llab-quvvatlashini va Qrimda etnik ukrainlar va qrim-tatarlariga nisbatan diskriminatsion siyosatini to'xtatishni talab qildi. ICJ Rossiya o'zining bajarilishi lozim bo'lgan ayrim majburiyatlarni tan olishdan bosh tortgani sababli ushbu ishda to'liq yurisdiksiyani amalga oshira olmadi. Bu ham yurisdiksiya yetishmasligi bilan bog'liq yana bir dolzarb misoldir.

Xalqaro Sud (ICJ) O'zbekiston uchun ham xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, xalqaro huquqni mustahkamlash va fuqarolar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Davlatlar o'rtasidagi chegaraviy masalalar yoki transchegaraviy resurslardan foydalanish bo'yicha nizolar yuzaga kelganda, ICJ orqali ular qonuniy yechim topishi mumkin. Bundan tashqari, ICJ O'zbekiston investitsion muhitini mustahkamlashda, ya'ni xorijiy investorlar bilan bog'liq nizolarni adolatli hal etishda ishonchli vosita hisoblanadi. Xalqaro Sud qaror va maslahatlari O'zbekistonda xalqaro huquqiy madaniyatni rivojlantirib, xalqaro shartnomalarga rioya qilish mas'uliyatini oshiradi.

Shu tariqa, O'zbekiston ICJ bilan hamkorlik qilish orqali Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlikka hissa qo'shadi va xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyani mustahkamlaydi.

Xulosa

Xalqaro Sud (ICJ) xalqaro huquqiy nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishda muhim vosita hisoblanadi va uning yurisdiksiyasi xalqaro hamjamiyatning tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi asosiy tamoyillarga mos keladi. ICJning nizoli masalalarni hal qilish va maslahat xulosalari berishdagi vakolati davlatlar o'rtasidagi murakkab muammolarni huquqiy asosda hal qilish imkonini beradi. Sudning ishlashi, shuningdek, xalqaro huquqiy normalarni qo'llashni kengaytirishga, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga va suveren davlatlarning roziligi asosida barqaror nizolarni hal qilishga yo'naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, ICJ davlatlar o'rtasida tinchlikni ta'minlash va adolatli nizolarni hal qilishning universal platformasi sifatida faoliyat yuritadi. O'zbekiston uchun ham ICJ xalqaro nizolarni hal qilish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa mamlakatning xalqaro huquqqa sodiqligini va xalqaro hamkorlikka tayyor ekanligini namoyon etadi.

REFERENCES

1. Shaver, L. (2020). The Evolution of the ICJ's Jurisdiction. *American Journal of International Law*, 114(4), 687-721.
2. Crawford, J. (2019). *Brownlie's Principles of Public International Law* (9th ed.). Oxford University Press.
3. Thirlway, H. (2021). *The International Court of Justice*. Oxford University Press.
4. Preuss, Lawrence. "THE INTERNATIONAL COURT OF JUSTICE: OPTIONAL VERSUS COMPULSORY JURISDICTION." *World Affairs*, vol. 108, no. 4, 1945, pp. 228-33. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/20664208>. Accessed 8 Nov. 2024.
5. TSUL - Library. (2022). Xalqaro ommaviy huquq. Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E., 2007. - TSUL - Library. [online] Available at: <https://library-tsul.uz/xalqaro-ommaviy-huquq-odilqoriyev-x-t-ochilov-b-e-2007/> [Accessed 8 Nov. 2024].
6. Cyberleninka.ru. (2022). NIKARAGUA VA AQSH O'RTASIDAGI NIZO XALQARO SUD TAHLILIDA. [online] Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/nikaragua-va-aqsh-o-rtasidagi-nizo-xalqaro-sud-tahlilida/viewer> [Accessed 8 Nov. 2024].
7. International Court of Justice (1945). Statute of the Court of Justice. [online] www.icj-cij.org. Available at: <https://www.icj-cij.org/statute>.

8. Ijor.co.uk. (2024). View of The International Court of Justice. [online] Available at: <https://ijor.co.uk/ijor/article/view/3654/2005> [Accessed 8 Nov. 2024].
9. Ogbodo, S. and Gozie (2012). An Overview of the Challenges Facing the International Court of Justice in the 21st Century. Annual Survey of International & Comparative Law, [online] 18. Available at: <https://digitalcommons.law.ggu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1159&context=annlsurvey>.
10. TSUL - Library. (2024). BMT xalqaro sudi. Miruktamova F. 2024 - TSUL - Library. [online] Available at: <https://library-tsul.uz/bmt-xalqaro-sudi-miruktamova-f-2024/> [Accessed 8 Nov. 2024].